



MATNSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Dilshoda Xo'jayeva Shuhrat qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2- bosqich magistranti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi
(99)337-14-18

ANNOTATSIYA

Maqolada matnshunoslikning dolzarb muammolari va ularning yechimlari koribchiqilgan, shuningdek mumtoz adabiyot namunalarini asosida o'rganish, talabalarni qo'lyozma manbalardan xabardor qilish, ularni mutaxassis sifatida tayyorlash, arab yozuvidagi manbalarni qo'lyozma nusxalar asosida nashr etish, ilmiy izohlar matnini tayyorlash, manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, muqobala uslubi, fan yuzasidan talabalar mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri ekanligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: qo'lyozma manba, toshbosma manba, muqobala uslubi, manbashunoslik, matnshunoslik, nasta'liq, ilmiy izohlar, mufradot, murakkabot, transkripsiya, tabdil, transliteratsiya, tekstologik belgi.

ABSTRACT

The article examines the study of classical literature on the basis of originality, informing students about manuscripts, preparing them as specialists, publishing sources in Arabic on the basis of manuscripts, preparing the text of scientific commentaries, new scientific and theoretical research in the field of source studies and textual studies, methods of interaction, as well as the fact that the proper organization of independent work of students in science is one of the most pressing issues today.

Keywords: manuscript source, lithograph source, method of interaction, source studies, textual studies, nastaliq, scientific commentary, mufradot (single compounds), murakkabot (complex compounds), transcription, conversion, transliteration, textological notation.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin uning ilmiy-tarixiy va madaniy merosini tiklash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidan biriga aylandi. 2014 yil 15-16 may kunlari Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil etilgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiyasi rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiya mamlakatimizda Istiqlolning dastlabki



yillaridanoq davlatimizda qadr-qimmati bilan adabiyotga daxldor ilmiy, madaniy merosimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, keng miqyosda o‘rganish xalqimizga etkazish sohasida olib borilgan olamshumul ishlarning o‘ziga xos sarhisobi bo‘ldi. Xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida davlat rahbari tomonidan so‘zlangan nutqda Sharq qo‘lyozmalarida saqlanayotgan ulkan merosni o‘rganish va ommalashtirish, yoshlarga etkazish haqidagi da’vat, shu yo‘nalishda yurtimiz va xorijdagi tegishli etakchi universitetlar, ilmiy tadqiqot markazlari o‘rtasida har tomonlama hamkorlikni mustahkamlash borasidagi qilingan da’vat butun kurrai zamindan yig‘ilgan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan mammuniyat bilan qabul qilindi.

Nutqda e’tibor qaratilgan ko‘pgina jihatlar mamlakatimizda manbashunoslik va matnshunoslik sohasida to‘plangan boy tajribani bir tizimga keltirishni mahalliy olimlar zimmasiga muhim vazifa qilib yukladi. Ma’lumki, o‘tgan asrda xalqimiz tarixiga oid yozma manbalarni izlab topish, to‘plash, ilmiy muomalaga olib kirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston hududida mavjud davlat kutubxonalarida to‘plangan yuzlab qo‘lyozma manbalar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti tashkil etilgach, uning qo‘lyozmalar fondiga birlashtirildi. Uzoq yillar davomida institut xodimlari tomonidan olib borilgan arxeografik ekspeditsiyalar natijasida jahonda o‘zining hajmi va salmog‘i bilan etakchi o‘ringa chiqqan bebaho qo‘lyozmalar xazinasi yaratildi. Keyinchalik Hamid Sulaymon tomonidan Angliya, Fransiya va Hindistonga uyushtirilgan arxeografik ekspeditsiya natijasida xalqimizning buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning asarlari mikrofilm va fotonusxalari keltirilib, adabiy merosimiz qimmatli ma’lumotlar bilan boyitildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida Qo‘lyozmalar instituti tashkil etilib, adabiy merosimizni har tomonlama tadqiq etish ishlari boshlanib ketdi. Bu qo‘lyozma manbalarni ilmiy iste’molga kiritish yillari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti va Qo‘lyozmalar institutida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek manbashunoslaring zabardast vakillari atrofida ilmiy maktablar shakllandi. Tarixiy manbashunoslik sohasi jadal rivojlanib, olamshumul yutuqlar qo‘lga kiritildi. Jumladan, tarixiy, aniq fanlar, geografiya, kosmografiya, biografik, agiografik asarlar, rasmiy hujjatlar ustida yuzlab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Yozma manbalarni tavsiflash, ilmiy iste’molga kiritish bo‘yicha bir necha avlod vakillari fidokorona mehnat qildilar va minglab manbalarning kataloglashtirish ishini olib bordilar. Ammo shuni ham tan olish lozimki, yurtimizda o‘tgan asrning boshlaridan davom etib kelayotgan Sharq qo‘lyozmalarini o‘rganish ishlari mustabid kommunistik tuzum belgilab qo‘ygan chegara va doiradan chiqa olmadı. Natijada matnlarni chuqr o‘rganish ishlari orqa planga surilib qoldi. Tarixiy asarlar matni zamiridagi davr mafkurasi ruhi xaspo‘shab o‘tildi. Tadqiqotchining yondashuvida tuzum tazyiqi

yaqqol sezilib turdi. Ana shu ko‘rinmas tazyiq olimlarni ko‘proq manba-qo‘lyozma tavsifi va bayoni bilan cheklanishga, matn tubiga kirishdan ongli ravishda qochishga olib keldi. Shundan O‘zbekistonda manbashunoslik sezilarli rivojlansa-da, matnshunoslik faqat nomigagina mavjud bo‘lib keldi.

Xalqimizning boy ilmiy-ma’naviy merosi, adabiyot va san’ati haqidagi qimmatli ma’lumotlari arab yozuvida bitilgan qo‘lyozma manbalarda aks etgan. Qo‘lyozma namunalarini asliyat asosida o‘rganish, talabalarni arab imlosidagi manbalardan xabardor qilish, ularni mutaxassis sifatida tayyorlash oliy ta’lim tizimida madaniyma’rifiy saviyaning oshishiga sabab bo‘ladi. Mumtoz manbalarni qo‘lyozma nusxalar asosida nashr etish, mukammal ilmiy izohlar, ularning tanqidiy matnni tayyorlash, matnshunoslik yo‘nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Buning uchun muqobala uslubi va qo‘lyozma matn ustida ishlash tajribasiga asoslanib ish olib borish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Muqobala uslubini matnshunoslik, xususan matn tarixini o‘rganish jarayoniga tatbiq etishda quyidagi muhim xususiyatlarga alohida e’tibor qaratish zarur: 1) olimlarning yagona maqsadi - xatolardan xoli mukammal matnni tiklash niyatida bir jamoa bo‘lib ishlashi; 2) matnning harfma-harf, so‘zma-so‘z qiyoslanishi; 3) xatoliklarni bartaraf etish uchun mutaxassislar o‘zlari tayyorlagan matnlarni bir-biri bilan o‘zaro almashlab tekshirishi; 4) matndagi xatoliklarni o‘chirib yubormasdan ustiga chizib ishlash; 5) tiklangan ishonchli matn bo‘yicha dars o‘tishga avval ustoz olim tomonidan yozma ijozat berilgan bo‘lsa, bugungi kunda matnshunoslар jamiyati tomonidan maxsus ruxsatnomा berilishini yo‘lga qo‘yish. Bugungi kun barcha sohalar qatori ta’lim-tarbiyani ham sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarishni taqozo etmoqda. Barchamizga ma’lumki, ta’lim jarayonida mahoratlri o‘qituvchilar tomonidan yangidan-yangi, ilg‘or tajribalar, o‘qitishning turli interfaol usullari kashf etilayotgani hamda amaliyotga joriy etilayotgani quvonarli holdir. Talabalarga bilim berishda ta’lim va tarbiyani uyg‘unlikda olib borish talab etiladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi” deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi” 2 . O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-mayda qabul qilingan “Qadimiylar yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995 -sonli Qarori, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 23-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetiga tashrifi chog‘ida o‘zbek mumtoz adabiyotiga taalluqli manbalarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish, shu

yo‘nalishda birinchi navbatda yetuk manbashunos va matnshunos kadrlarni tayyorlash vazifa qilib belgilangan. Qarordan kelib chiqqan holda, bugungi globallashuv davri barcha sohalar qatori ta’lim-tarbiyani ham sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarishni taqozo etmoqda. Ta’limga “o‘qitishning interfaol usullar” nomi bilan kirib kelayotgan usullar o‘qituvchiga qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratmoqda. Ammo, qisqa vaqt mobaynida nazariy ma’lumotni o‘quvchiga yetkazish, mavzu yuzasidan ko‘nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga, ularni nazorat qilish hamda baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi. Ta’lim jarayonida har bir bolani o‘z qobiliyati, qiziqishlari va eng asosiysi, uning imkoniyati darajasida munosib baholashda yomon baho bilan o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirmaslik, ruhiyatini cho‘ktirmaslik, nafsoniyatiga tegmaslik, g‘ururini toptamaslik yetakchilik qimog‘i shart . Mashg‘ulotni shunday tashkil etish kerakki, darsda o‘quvchilarning barchasi faol ishtirok etishi zarur, ya’ni mashg‘ulot jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi talabalar tomonidan mustaqil o‘rganiladi, so‘ngra bu ma’lumotlar har tomonlama muhokama qilinadi. Mustaqil ishlar ham shu tariqa bajariladi. Talaba mashg‘ulot davomida o‘zini erkin his qilishi lozim, shundagina u o‘zining mustaqil fikrini bayon qila oladi. O‘quv rejada mustaqil ish uchun juda katta soat ajratilmoqda. Shuning uchun talabalarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida mavzular bilan aloqador turli qo‘lyozma manbalar ustida ishlash, darslik, qo‘srimcha adabiyot va internet ma’lumotlaridan ham keng foydalanish, qo‘lyozma va toshbosma matnlar ustida mustaqil ishlash, mavzuga oid suhbatlar olib borish, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishga ham alohida ahamiyat berish nazarda tutiladi . Arab yozuvidagi mumtoz badiiy asarlar matnini chuqur va ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganmay turib, matnshunoslik ilmining taraqqiy etishi haqida gapirish mumkin emas. Chunki badiiy matn qo‘lyozmasi va uning tarixi tushunchasi matnshunoslikning tayanch nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Arab alifbosi asosidagi asarlar matnini o‘rganishning ilmiy asoslangan, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarga qo‘llash mumkin bo‘lgan mezonlari va tamoyillari hanuzgacha aniq ishlab chiqilmagan. Bu esa, matnshunoslikning va adabiy-ilmiy tahlilning ham asosi bo‘lgan matn tarixini tadqiq etishning yaxlit tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Millatning kelajagi bo‘lgan har tomonlama bilimli yoshlarni tarbiyalashda mumtoz adabiyotimizning durdona asarlarida ilgari surilgan ta’lim va tarbiyaga oid umuminsoniy g‘oyalar targ‘ibi ham alohida kasb etilganligi hech kimga sir emas. Arab alifbosi asosidagi o‘zbek turkiy yozuvi ming yillar davomida iste’molda bo‘lib kelganligi barchaga ma’lum. Dasturda matnshunoslik va tilshunoslikdagi matn tushunchasining farqi, arab yozuvi tarixi, matnshunoslik va eski o‘zbek yozuvining dolzarb muammolari, tabdil, transkriptsiya, transliteratsiya, mumtoz matnlarni tushunishda lug‘at ilmining o‘rni, nasta’liq xatidagi (arab xat turlari) toshbosma va qo‘lyozma kitoblarni o‘qiy olish, XX asr boshi isloh qilingan alifboni o‘qib tushunish,



nazmni nasriy bayon qilish, mumtoz matnni muxtasar va to‘la sharhlash, adabiy manbani tasniflash, eski o‘zbek yozuvini, qo‘lyozmaning ahamiyatini, matnda ilmiy ko‘rsatkich imkoniyatini, qo‘lyozma turlarini, katologlardagi ilmiy tavsif tuzilishlari haqida, mufradot, murakkabot, imlo, eski o‘zbek yozuvi bilan bog‘liq boshqa masalalar, matnni izohli o‘qish, matnshunoslik va manbashunoslikni ham o‘z ichiga oladi. Eski o‘zbek yozuvidagi matnlar 1929-30-yillarga qadar yaratilgan qo‘lyozmalardan iborat bo‘lib, talabalar tomonidan qo‘lyozmalarni erkin o‘qib keta olishini ta’minlash maqsadida semestr davomida talabalar mustaqil ravishda mustaqil ta’lim uchun ajratilgan mavzularni ham albatta bajarishi shart. Filologiya sohasida mustaqillikdan song Sharq qo‘lyozmalarini o‘rganish, qo‘lyozma manbalarni topish, ilmiy tadqiq qilish va nashr etish ishlarining jonlanishi, mumtoz qo‘lyozmalarni o‘rganish matnshunoslik sohasining ham jadal rivojlanishiga turtki berdi. Biroq, mumtoz qo‘lyozma asarlar matnni ilmiy o‘rganish sohasida uzoq yillar davomida yig‘ilgan tajribaning ommalashmagani, matnshunoslikning tadqiqot usullaridan bexabarlik oqibatida nashr qilingan manbalarning ilmiy-badiiy ahamiyati va yozma yodgorlik sifatidagi qimmatini to‘liq ko‘rsatishga ojizlik qiladi. Matnshunoslik sohasining vazifalari, nashr tiplari va prinsiplarining ma’lum tizimga solinmaganligi qo‘lyozma asarlar tadqiqi ustida ish olib borayotgan yosh tilshunos va adabiyotshunos olimlarimizga manbalarni ilmiy iste’molga kiritish ishlarida muayyan qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Bu esa sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati yo‘nalishdagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni davr talabiga aylantirdi. Filologiyada matn ustida ishslash masalalarida ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan yagona qoida yo‘q. Manbashunoslар matn tarixi, tadqiqi va tavsifi ustida ko‘proq bosh qotirsalar, matnshunoslар ularga qo‘srimcha ravishda matn talqini tadqiqiga ham alohida e’tibor qaratadilar. Shuning uchun manbashunoslik tarixiy va tabiiy fanlar sohasiga, matnshunoslар esa filologiya sohasiga tegishliligi bilan birbiridan farqlanadi. Fanni o‘qtish qo‘lyozma nusxaning matn xususiyatlaridan tortib nashr ko‘rinishidagi barcha yutuq va kamchiliklari haqida tasavvur uyg‘otuvchi tadqiqotni amalga oshiradi. Matnshunoslik va eski o‘zbek yozuvi fanining tadqiq usullari bir qancha bo‘lib, matniy tafovutlarni tahlil qilish, muallif matnidagi xatoliklarini aniqlash, matnni o‘zgartirish hollarini aniqlash, qo‘lyozma tavsifini amalga oshirish, qo‘lyozma va toshbosma nusxalar o‘rtasidagi farqlar tahlili, nusxalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, tekstologik belgilarni, matnning yaratilish joyini aniqlash va boshqa shu kabi usullar kiradi. Axborot va bilimlar doirasi tez sur’atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma’lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlari paytida talabalarga yetkazish juda mushkul. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, modul tizimida talaba ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlasagina, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko‘nikma va malakalari mustaqil ta’lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyati rivojlanadi va



ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo‘ladi. Shuning uchun talabalarning mustaqil ta’lim olishlarini modul tizimi asosida rejalarshirish, uni tashkil qilish, buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratish, mashg‘ulotlarda qo‘lyozma matnlarni o‘qitish bilan bir qatorda bilim olish yo‘llarini ko‘rsatish, mustaqil ta’lim olish uchun yo‘naltirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi . Talaba mustaqil ishi fan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismi talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati hamda tavsiyalari asosida darsdan tashqarida o‘zlashtirishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyat hisoblanib, topshiriqlar puxta o‘ylab chiqilgan va ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning mashg‘ulot davomida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to‘ldirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Mustaqil ishlarning shakli va hajmini belgilashda quydagilar e’tiborga olinishi lozim: o‘qish bosqichi; fanning o‘ziga xos xususiyati va uni o‘zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi; fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganligi; ba’zi mavzularni qo‘srimcha adabiyotlar yordamida mustaqil o‘zlashtirish; talabalarning qo‘lyozma manbalar bilan ishlay olish darajasi va boshqa shu kabi. O‘quv mashg‘ulotining bu turi joriy nazoratning eng muhim tarkibiy qismidir, chunki mustaqil ish talaba tomonidan semestr davomida mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Talabalarning og‘zaki hamda yozma nutqlarini rivojlantirishda ta’limning bu turi bosqichma-bosqich o‘rganiladigan mazkur fan zimmasidagi eng asosiy vazifalardan biridir. Mustaqil ta’lim ishlanmasi rejaga muvofiq nasta’liq xatida yozilgan qo‘lyozma, hamda toshbosma asarlarni eski o‘zbek yozuvining (arab) barcha qoidalariга rioya qilgan holda ko‘chirish asosida amalga oshiriladi. O‘quv yili boshida o‘qituvchi fan bo‘yicha ajratilgan mustaqil ish soati va mustaqil mashg‘ulot mavzusi hamda mashg‘ulotdan tashqari vaqtida bajariladigan ishlar haqida talabalarga umumiy ma’lumot berib o‘tadi. Berilgan topshiriqlar mavzuni mustaqil o‘zlashtirish uchun ham xizmat qiladi. Fanning o‘ziga xos xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun uyga vazifa sifatida beriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ochib berish va tahlil qilishga asos bo‘ladigan tayanch so‘z va iboralar, mavzuni tizimli bayon etishga xizmat qiladigan savollarga e’tiborni qaratish, asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar, mumtoz adabiy asarlar tilini o‘rganish uchun mo‘ljallangan izohli lug‘atlar hamda axborot manbalarini aniq ko‘rsatish talab qilinadi. Mustaqil o‘zlashtirilgan mavzu yuzasidan tayyorlangan ish kafedrada himoya qilinadi. Qo‘lyozma manti ustida ishslash oddiy ko‘chirishdan iborat emas, balki, beriladigan vazifa matnlarining asosiysi qo‘lyozma va toshbosmalardan iborat bo‘lib, talabalar uni bajarishda quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim: - mavzu yuzasidan aniq reja tuzib chiqiladi; - mavzu haqida to‘liq ma’lumot beriladi (Masalan, A.Naviyning “Farhod va Shirin” dostoni) - berilgan qo‘lyozma asar matnini talaba dastlab mustaqil o‘qib chiqadi. Bu jarayon mustaqil bajariladi va o‘qituvchi oldida o‘qib beriladi; - matndagi

o‘qilishi qiyin so‘zlar, jumlalar o‘qituvchi rahbarligi asosida amalga oshiriladi; - talaba o‘zi uchun o‘qilishi va ma’nosini tushinilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning lug‘atini uyda darslik hamda qo‘sishimcha adabiyotlarga tayangan holda tayyorlaydi. Bunda asosan so‘zning matndagi ma’nosiga ahamiyat berilishi kerak; - arab yozuvidagi matnni amaldagi joriy imloga transliteratsiya qilinadi; - matn kirill va lotin yozuvidagi matn bilan ham qiyoslanadi; - talaba mumtoz matnlarni o‘rganishda qo‘lyozmaning ilmiy ahamiyatini, qo‘lyozma qaysi xat turida yozilganligini haqida ham bilimga ega bo‘lishi lozim; - matn talabalar tomonidan mustaqil o‘qilishi, har bir o‘quvchi tomonidan o‘zicha idrok etilishi, o‘ziga xos tarzda qabul qilinishi, ilmiy xulosalar chiqarilishi nihoyatda muhim natija hisoblanadi; - mustaqil ish so‘nggida xulosa qismi to‘liq shakllantirilishi lozim. Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda tizimli yondoshish, barcha bosqichlarni muvofiqlashtirish va uzviylashtirish, ishning bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish, uni tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish ustivor vazifalardan biri hisoblanadi. Qo‘lyozma matn talabalar tomonidan mustaqil o‘qilishi, har bir o‘quvchi tomonidan o‘zicha idrok etilishi, o‘ziga xos tarzda qabul qilinishi, o‘ziga xos ilimiylar xulosalar chiqarilishiga erishilishi fanni o‘qitishda nihoyatda muhim natija hisoblanadi. Qo‘lyozma matnni o‘rganishda guruh bo‘lib ishlash shu xususiyati bilan qimmatliki, u jamoa bo‘lib ishlashni – bir qancha talabalar va o‘qituvchining o‘zaro ilmiy hamkorlikda faoliyat yuritishini taqozo etadi. Tabiiyki, ilmiy hamkorlik, ayniqsa, matnshunoslik ishlarida yuqori samara beradi. Shu jihatdan ham, qo‘lyozma matn va uning tarixini o‘rganish, mumtoz adabiyot namunalarining mukammal va ishchonchli nashrularini amalga oshirish jarayoniga tatbiq etish matnshunoslikning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa o‘qituvchidan yuksak mahorat talab etadi. Ta’lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o‘quvchilarda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma’naviy olamini yaratishdan iboratdir. Shu ma’noda talabalarga bilim berishda ta’lim va tarbiyani uyg‘unlikda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Н.Жабборов. Матн тарихи ва унинг генезисига доир айрим мулоҳазалар. // Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигига бағишиланган “Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. - Наманган, 2021 йил 19-20 май. 10-б; Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни // Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмийамалий конференцияси материаллари. –Тошкент: Mumtoz so‘z, 2019. 9-бет.

2. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-китоб, “Ўзбекистон”, 2017-йил. -Б. 504-505.
3. Q.Husanboyeva., R.Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi.-Toshkent, 2018- yil.B-87.
4. Sirojiddinov Sh. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik.- Т., 2018; Sirojiddinov Sh., Umarova S. O‘zbek matnshunosligi qirralari.-Т.:Akademnashr, 2015; Sodiqov Q. Matnshunoslilik va manbashunoslik asoslari.-Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslilik instituti, 2017. 216 b; Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug‘ati.-Т., 2013; Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslilik. - Toshkent, 2000; Т.Шермуҳаммедов., Ф.Абдуллаев., Л.Халилов., А.Халилов. Ўқиши китоби.-Т., 1994; Ф.Исҳақов. Эски ўзбек тили ва ёзуви.-Т., 1995; С.Аширбоев., И.Азимов., М.Рахматов., А.Гозиев. Эски ўзбек тили ва ёзуви практикуми.-Т., 2006.
5. Hamidova M., Sulaymonova N. Eski o‘zbek yozuvi. -Toshkent, 2009; Azimov I., G‘oziyev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi fanidan mustaqil ishlar.- Toshkent, 2010; Hamidov ., Ubaydullayev A., Egamova Sh. Eski o‘zbek tili va yozuvi (ma’ruza matni). -Toshkent, 2001